

MULK

O'zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti

mustaqil izlanuvchisi –

Xidirov Mexroj Qilich o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti

Yurisprudensiya fakulteti

biznes huquqi yo'nalishi 2- kurs talabasi

Rajabova Shakarjon Nuraddin qizi

Mulk va mulkka egalik qilish bu dunyo miqyosidagi keng qamrovli tushuncha bo'lib yer sayyorasida yashab istiqomat qilayotgan har bir shaxs bu termin bilan yuzma -yuz kelishi aniq ya'ni insoniyat tarixida mulk tushunchasi har doim markaziy o'rinda bo'lgan. Mulk qadimdan barcha kishilik jamiyatini va u jamiyat a'zolar hisoblangan fuqarolarni ohangrabodek o'ziga tortib kelgan. Zero kishilarning o'zlari to'plagan mol-mulkiga qarab, ularning jamiyatdagi, ijtimoiy turmushdagi mavqelari belgilangan. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda taqdim etilgan boyliklar har doim mulk bo'lib kelgan. Bugungi kunda yuridik sohada mulk tushunchasi aniq huquqiy mezonlar asosida belgilangan bo'lib, u fuqarolik huquqi tizimining asosiy institutlaridan biridir.

Mulk- bu moddiy va nomoddiy ne'matlarning aniq bir shaxsga tegishliligi, tasarruf qilinishi va undan daromad olishi va o'z ixtiyori bilan foydalanishidir.

Mulk huquqining asosiy tamoyillari:

1. O'zbekiston Respublikasida mulk daxlsiz, mulkdorning mulk huquqi qonun bilan kafolatlanadi hamda mulkdor bu huquqlardan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin.

2. Iqtisodiyot samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o'sishiga yordam beradigan har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat beriladi.

3. Mulkchilikning hamma shakllari himoya qilinishi qonun bilan kafolatlanadi va ularning teng rivojlanishiga sharoit yaratib beriladi.

4. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-xarakatlarni o'z xohishiga ko'ra sodir etishga haqli.

5. Mulkiy huquqning amalga oshirilishi atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va davlat huquqlarini buzmasligi hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga putur yetkazmasligi shart.

6. Har kim mulkdor bo'lishga haqli.

Mulk shakllari:

1.Xususiy mulk

a) yakka shaxsga tegishli mulk

b) nodavlat yuridik shaxslar mulki

2)Ommaviy mulk

a) O'zbekiston Respublikasi mulk

b) ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki.

Shuningdek mulk va mulkka egalik qilish huquqi tushunchasi hamisha bir -biriga chambarchas bog'liq tushunchalardir.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra, **mulk huquqi** shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining Mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat.

Mulk huquqining himoyasi:

Mulk huquqi buzilgan taqdirda, egasi sud orqali uni himoya qilish huquqiga ega. Asosiy himoya vositalaridan biri – **vindikatsion** da'vo bo'lib, bu egasiga mulkni noqonuniy egalikdan qaytarib olish imkonini beradi. Bundan tashqari, egalik huquqining tan olinishi mulkka zarar yetkazilgan taqdirda tovon undirish kabilar ham mulk huquqini himoya qilish shakllaridandir.

Amalda mulkdorning mol-mulkka egalik qilish huquqiga daxl qiluvchi bir holat bor: agar mulkdor mol-mulkni uzoq muddat qarovsiz qoldirsa, u holda mulk huquqini bekor bo`lishiga olib kelishi mumkin( ko`char mulkka 5 yil, ko`chmas mulkka 15 yil). Qarovsiz qoldirish mulkdorni mulkdor sifatidagi vakolatlaridan ushbu obyektga nisbatan hech qanday foydalanmaslik, mulkdorlik tuyg`ularini biron-bir tarzda namoyon etmaslik, mulkdorlik tuyg`ularini bajarmaslik hisoblanadi. Huddi shu sababli mulkdor mol-mulkini saqlash, unga faktik egalik holatida obyektga nisbatan muayyan foal harakatlarni sodir etishi, boshqa uchinchi shaxslarga ham o`zining ushbu obyektga nisbatan mulkdor ekanligini biron-bir tarzda namoyon etib turishi lozim.

Mulk tushunchasi yuridik nazariya va amaliyotda muhim o'rin tutadi. U shaxslarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi va ijtimoiy barqarorlikning asosiy tayanchi hisoblanadi. Huquqiy davlatda mulk huquqi kafolatlangan bo'lib, u konstitutsiyaviy va fuqarolik huquq normalari bilan mustahkamlangan. Shuning uchun mulk va unga oid huquqiy munosabatlarni to'g'ri tushunish va ularga rioya qilish har bir fuqaroning burchidir.